

## **YOSHLAR SANOAT ZONASIDA ISHLAB CHIQARISH HAJMI OSHMOQDA**

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov viloyat sektorlari rahbarlari bilan birga “Qo’qon” yoshlар sanoat va tadbirkorlik zonasidagi yangi loyihalar bilan tanishdi.

Mazkur zona 60 hektar maydonda tashkil etilgan bo’lib, shundan muhandislik-kommunikatsiya va yo’l-infratuzilmasi uchun 10,1 hektar hamda loyiha joylashtirilishi mumkin bo’lgan yer maydoni 49,9 hektardan iborat. Bugungi kunda 33,6 hektar yer maydonlariga qiymati 424,6 mlrd. so’m bo’lgan 63 ta loyihalar joylashtirildi. Mazkur loyihalar ishga tushirilishi hisobiga 2550 ta yangi ish o’rinlari yaratilishi rejalashtirilgan.

Hozirda qiymati 210 mlrd. so’m bo’lgan 22 ta loyihalar ishga tushirildi. Bundan tashqari, 2024-2025 yillar davomida qiymati 214,6 mlrd. so’m bo’lgan loyihalar ishga tushirilishi hisobiga 2396 ta yangi ish o’rinlari yaratiladi.

Viloyat hokimi sanoat zonasidagi qishloq xo’jaligi texnikalari, qishloq xo’jaligi, elektrotexnika hamda arqon ishlab chiqarish korxonalarida bo’lib, ularning faoliyati bilan tanishdi.

“Bek plint savdo” MChJ tomonidan elektrotexnika sohasida - kabel ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilib, 2 mlrd. so’m mablag’ sarf etildi. 15 ta ish o’rni yaratilgan korxona mahsulotlariga talab yuqori. Endilikda plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarish bo’yicha ham ishlar boshlangan. Viloyat rahbari tarmoqni yanada kengaytirish, mahsulot sifatiga e’tibor qaratish bo’yicha ko’rsatmalar berdi.

“Comfy Trade” MChJ tomonidan loyiha qiymati 6 mlrd. so’m bo’lgan qishloq xo’jaligi texnikalari ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirildi. 25 nafar ishchi-xodim bandligi ta’minlandi. Mahsulotlar ichki bozorga yetkazib berilmoqda.

Viloyat rahbari tadbirkor bilan suhbatda butlovchi qismlar ishlab chiqarish, mahsulotlarni mahalliyashtirish va qo’shimcha yangi ish o’rinlari yaratish bo’yicha takliflar berdi.

Mas’ullarga sanoat zonasining bo’sh maydonlariga istiqbolli loyihalarni joylashtirish, tadbirkorlarni bu yerga jalb etish bo’yicha vazifalar belgilab berildi.

### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-09-10 19:50:54